

## DUDUQLANISHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA LOGOPEDIK KORREKSION ISH USULLARI

**Rashidova Muqaddam**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada dudug'lanish (logonevroz, dizartrik, rinolalik shakllar bilan differensial bog'liq bo'lmagan holda) nutqning ritmik-tembr va artikulyatsion strukturasi buzilishi sifatida yoritilib, uning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi psixologik, neurologik va ijtimoiy-pedagogik omillar tahlil qilinadi. Duduqlanishdagi bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik yondashuvlar, logopedik korreksiya bosqichlari hamda o'quv-mashg'ulot texnologiyalari ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, kompleks (logopedik + psixologik + pedagogik) yondashuv dudug'lanish dinamikasini sezilarli kamaytiradi, nutq ritmini normallashtiradi va bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** dudug'lanish, logonevroz, psixokorreksiya, logopedik mashg'ulot, nutq ritmi, nafas mashqlari.

**Аннотация:** В статье рассматривается заикание (без дифференциальной связи с логоневрозом, дизартрией, ринолалической формой) как нарушение ритмико-тембровой и артикуляционной структуры речи, анализируются психологические, неврологические и социально-педагогические факторы, влияющие на его возникновение. Научно обоснованы психолого-педагогические подходы, этапы логопедической коррекции и образовательные технологии для детей с заиканием. Результаты исследования показывают, что комплексный (логопедический + психолого-педагогический) подход достоверно снижает динамику заикания, нормализует ритм речи и развивает коммуникативную компетентность детей.

**Ключевые слова:** заикание, логоневроз, психокоррекция, логопедическая терапия, ритм речи, дыхательные упражнения.

**Annotation:** The article describes stuttering (without differential association with logoneurosis, dysarthric, rhinolalic forms) as a violation of the rhythmic-timbre and articulatory structure of speech, and analyzes the psychological, neurological and socio-pedagogical factors affecting its origin. Psychological-pedagogical approaches, stages of speech therapy correction, and educational technologies for stuttering children are scientifically described. The results of the study show that a complex (speech therapy + psychological + pedagogical) approach significantly reduces the dynamics of stuttering, normalizes the rhythm of speech, and develops the communicative competence of children.

**Keywords:** stuttering, logoneurosis, psychocorrection, speech therapy, speech rhythm, breathing exercises.

Duduqlanish bolalar nutq rivojlanishidagi eng murakkab logopedik muammolardan biri bo'lib, nutqning ritmik-intonatsion tizimi, artikulyatsion koordinatsiya va psixologik holat o'rtasidagi nosog'lom uyg'unlik natijasida yuzaga keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dudug'lanish 2–5 yoshda faol nutq shakllanishi davrida eng ko'p uchraydi, va o'z vaqtida aralashuv bo'lmasa, maktab yoshida barqaror patologik holatga aylanadi.

Duduqlanishning psixogen, nevrologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq etiologiyasi uning korreksiyasida ko'p tarmoqli yondashuvni talab etadi. Shu bois psixolog, pedagog va logopedning integratsiyalashgan faoliyati dudug'lanishning samarali bartaraf etilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqola mazkur integrativ yondashuvning nazariy asoslari va amaliy strategiyalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Duduqlanishning kelib chiqishi va uni korreksiya qilish bo'yicha ilmiy manbalar ushbu nutq buzilishining ko'p omilli tabiatga ega ekanini ko'rsatadi. Xorijiy logopedlar S. Shembel, G. Volkova, Ye. F. Rau dudug'lanishni asosan nutq-harakat koordinatsiyasi va nafas-fonatsiya tizimidagi diskoordinatsiya bilan bog'laydilar. Ularning tadqiqotlarida artikulyatsion apparatning yetarli avtomatlashmaganligi va nutq ritmining buzilishi dudug'lanishning asosiy fiziologik omillari sifatida talqin etiladi.

Psixologik yondashuv tarafdorlari, xususan V. A. Kalinina va L. Voskobovich, dudug'lanishning shakllanishida qo'rquv, stress, oilaviy tanglik kabi emotsional omillar yetakchi rol o'ynashini qayd etadilar. Bunday holatlarda psixologik qo'llab-quvvatlash va relaksatsion texnikalarning logopedik mashg'ulotlar bilan uyg'unligi muhim omil hisoblanadi.

Mahalliy mualliflar X.Zufarova, M.Ortiqova va L.Umarova dudug'lanishning ijtimoiy-muloqot sharoitlari bilan bog'liq jihatlarini yoritib, pedagogik muhitning bolaning nutq ravonligiga ta'sirini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, dudug'lanishni samarali bartaraf etish uchun logopedik mashqlar bilan bir qatorda oilaviy va maktab muhitini optimallashtirish zarur.

Ushbu tadqiqotda dudug'lanuvchi bolalarda nutq ravonligini tiklash jarayonining psixologik, pedagogik va logopedik mexanizmlarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, dudug'lanishning etiologik omillariga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, logopedik maktablarning asosiy nazariy qarashlari taqqoslandi. Amaliy bosqichda bolalarning nutq holatini aniqlash uchun kuzatuv, diagnostik suhbat, nutq namunalarini tahlil qilish va standart test metodlari qo'llanildi.

Logopedik korrektsiya jarayonini baholashda eksperimental metoddan foydalanilib, mashg'ulotlarning samaradorligi dinamik kuzatuv orqali aniqlab

borildi. Shuningdek, psixologik moslashuv darajasi, emotsional holat va kommunikativ faollikni aniqlash uchun psixodiagnostik testlar ham qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili asosida umumlashtirilib, duduqlanishni bartaraf etishda kompleks yondashuvning afzalliklari aniqlab berildi.

Duduqlanishdagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik korreksion ishlar nutqning ritmik, nafas-fonatsion, artikulyatsion va psixologik komponentlarini bosqichma-bosqich tiklashga qaratilgan bo'lib, ular tizimli hamda kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi. Logopedik amaliyotda eng avvalo bola nutqining boshlang'ich holati aniqlanadi va individual korreksion dastur tuziladi. Korreksiya jarayonining markaziy qismi nafasni boshqarish, ovoz chiqarish, artikulyatsiya apparatini faoliyatga tayyorlash va nutq sur'ati hamda ritmini me'yorlashtirishga qaratilgan mashqlardan iborat.

Nafas-fonatsion mashqlar orqali bolada diafragma nafasining shakllanishi, nafasni to'g'ri taqsimlash, fonatsiya davomiyligini oshirish ko'zda tutiladi. Artikulyatsion gimnastika esa lab, til, jag' va yumshoq tanglayning koordinatsiyalangan harakatini mustahkamlab, nutq apparati mushaklarining plastiklik darajasini oshiradi. Nutq ritmini me'yorlashtirish usullari ovozni cho'zib talaffuz qilish, pauzalarni boshqarish, metronom asosida gapirish va ritmik qo'llab-quvvatlovchi metodlar duduqlanish kuchini pasaytirishga yordam beradi.

Nutq materialini tanlashda soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilinib, avval fonetik-oddiy birliklar, keyin iboralar, so'ngra bog'lanishli nutq bilan ishlash bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi. Korreksiya jarayonida psixologik yengillikni ta'minlovchi usullar, jumladan relaksatsiya, musiqiy-ritmik mashqlar va hissiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan texnikalar qo'llanadi. Muloqotni rag'batlantirish, o'ziga ishonchni mustahkamlash va kommunikativ faollikni oshirish ham logopedik ishning ajralmas qismidir.

Logopedik korrektsiyaning samaradorligi ko'p jihatdan pedagog, psixolog, ota-ona va bola o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq bo'lib, oilaviy muhitni optimallashtirish, og'ir vaziyatlardan saqlash va muloqot madaniyatini qo'llab-quvvatlash bilan mustahkamlanadi. Ushbu integrativ yondashuv duduqlanishni kamaytirish va ravon nutqni shakllantirishda eng samarali metodlardan biri sifatida qaraladi.

Logopedik korreksion usullarning amaliy misollari

Nafas-fonatsiya mashqlari bo'yicha amaliy misollar

"Shamni yondirmay o'chirish" mashqi: Bolaga uzun va tekis havo chiqarish topshiriladi. Sham juda yaqin qo'yilmaydi; maqsad portlovchi nafas emas, balki ravon, boshqarilgan havo chiqarishni shakllantirish.

“Po’lat poyezd” mashqi: Bola diafragma nafasini boshqarib, “sh-sh-sh” tovushini 5–10 soniya davomida bir maromda chiqaradi. Bu mashq fonatsiya davomiyligini oshiradi.

Ovozli nafas mashqi: Nafas olgandan so’ng “mmm”, “aaa”, “ooo” kabi cho’zma tovushlarni bir maromda aytish orqali ovoz uzluksizligini rivojlantirish.

Artikulyatsion gimnastika bo’yicha amaliy misollar

“Soat” mashqi: Tilni chapdan o’ngga, keyin yuqoridan pastga sekin va aniq harakatlantirish til mushaklarini boshqarish va koordinatsiyani yaxshilaydi.

“G’ildirak” mashqi: Til uchini tishlar orqasiga qo’yib, aylana harakat qilish artikulyatsiya moslashuvchanligini oshiradi.

“Ot chopmoqda” mashqi: Bola tilini tanglayga urib “t-t-t-t” tovushlarini ritmik talaffuz qiladi – bu ritm va artikulyatsiyani birgalikda normallashtiradi.

Nutq ritmini me’yorlashtirishga doir misollar

Metronom bilan gapirish: Metronom 50-60 urish bilan qo’yiladi, bola har urishga bitta so’z aytadi. Bu nutq sur’ati va ritmini barqarorlashtiradi.

“Sayr qilamiz” o’yini: Bola yurish ritmi bilan gapiradi (har qadamga bir so’z). Harakat nutq ritmini boshqarishni yengillashtiradi.

Pauza bilan gapirish mashqi: Bola gapni boshlashdan oldin 1–2 soniya pauza qiladi. Bu nutqni shoshilmasdan boshlashni o’rgatadi.

Bog’lanishli nutqni rivojlantirish bo’yicha amaliy misollar

Rasm asosida hikoya tuzish: Rasm avval logoped tomonidan bo’laklarga bo’linadi, bola har bo’lakni tasvirlab beradi. Bu usul bosqichma-bosqich nutq shakllantirishga yordam beradi.

“Gapni davom ettir” o’yini: Logoped gapni boshlaydi: “Bugun ertalab men...”, bola davom ettiradi. Bu mavzuni tutib qolish va ravon gapirishni rag’batlantiradi.

“Yengil dialog” usuli: Logoped soddalashtirilgan savollar beradi, bola qisqa, aniq javoblar beradi. Keyin savollar murakkablashtiriladi.

Emotsional bo’shashish (relaksatsion) usullar bo’yicha misollar

“Issiq to’p” mashqi: Bola qo’liga yumshoq to’p oladi, uni ko’ksiga bosib, chuqur nafas oladi – bu emotsional bo’shashish va nutqiy taranglikni kamaytiradi.

Musiqqa bilan relaksatsiya: Sekin, tinchlantiruvchi musiqa fonida bola nafasni boshqaradi va cho’zma tovushlar chiqaradi.

“Bulutni uchiramiz” o’yini: Bola o’zini yengil “bulut” deb tasavvur qiladi va sekin, ravon harakatlar bilan nafas olish-chiqarish mashqlarini bajaradi.

Muloqotga kirishish va o’ziga ishonchni oshirish bo’yicha misollar

“Rolli o’yin”: “Do’konga bordik”, “Mehmon keldik”, “Telefon orqali gaplashamiz” kabi ssenariylarda bola nutqini nazorat ostida mashq qiladi.

Muvaffaqiyat kundaligi: Bola har bir mashg'ulotdan keyin erishgan natijasini yozadi yoki rasm chizadi. Bu ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Kichik auditoriyada chiqish: Dastlab ikki-uch tengdosh oldida qisqa gap aytish, keyin auditoriya kengaytiriladi – bu ijtimoiy qo'rquvni kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dudug'lanishdagi bolalarda nutq jarayonining buzilishi faqat fonetik yoki artikulyatsion omillar bilan emas, balki psixologik, emotsional va neyrofiziologik xususiyatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Kuzatuvlar bolalarda nutq paytidagi haddan tashqari hayajon, ijtimoiy qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik va nutqdan qochish xulqining shakllanishi dudug'lanishning davomiyligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shu sababli korreksion ishlarning samaradorligi kompleks yondashuvni talab etadi.

Logopedik amaliyotda qo'llangan artikulyatsion gimnastika, nafas-fonatsion mashqlar, nutq ritmini me'yorlashtirish usullari bolalarda nutq jarayonini boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilagan. Mashg'ulotlar davomida bolalarda nafasning bir maromda bo'lishi, fonatsiya uzunligining ortishi va nutqdagi pauzalarni mustaqil ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllangan.

Psixologik qo'llab-quvvatlash elementlari bilan boyitilgan mashg'ulotlar bola o'ziga bo'lgan ishonchini oshirgan, nutqiy vaziyatlarda hayajonni kamaytirgan. Rolli o'yinlar, relaksatsion mashqlar va kichik auditoriyada chiqish amaliyoti muloqotga kirishishda ijobiy o'zgarishlarga olib kelgan. Bolalar bilan olib borilgan guruhli mashg'ulotlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muloqot faollashib, nutqiy faollik oshgani kuzatilgan.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, logopedik korreksion ishda nutq ritmining sekinlashtirilgan modeli, pauza qo'yish usuli va metronom bilan gapirish texnikasi dudug'lanishni kamaytirishda o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Bunda bola nutqni rejalashtirishni o'rganadi, shoshilinch nutqdan voz kechadi va o'z nutqini ongli boshqarishga harakat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, individual va guruhli mashg'ulotlarning uyg'unlashgan holdagi korreksion modeli bolalarning nutqidagi uzilishlar sonini kamaytiradi, nutqning ravonligi va emotsional barqarorligini oshiradi. Logoped, psixolog va ota-onalar hamkorligida olib borilgan tizimli ishlar eng yuqori natija bergan: bola uy sharoitida ham mashqlarni davom ettirganida natijalar yanada barqarorlashgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni anglatadiki, dudug'lanishning korreksiyasida kompleks yondashuv logopedik, psixologik, ritmik va relaksatsion usullarning barchasini uyg'un qo'llash eng samarali strategiya hisoblanadi. Shu kabi integrativ yondashuv natijasida bolalarda nutq ravonligi tiklanib, ijtimoiy moslashuv, muloqotga kirishish qobiliyati va o'ziga bo'lgan ishonch sezilarli darajada ortadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot va tahlillar dudug'lanishdagi bolalar bilan logopedik ishlarda kompleks yondashuvning ustuvorligini tasdiqladi. Nutqning ravonligiga ta'sir etuvchi omillar artikulyatsion, nafas-fonatsion, ritmik, psixologik va ijtimoiy faktorlar birgalikda korreksiyaning talab qiladi. Shuning uchun dudug'lanishni bartaraf etishda logopedik mashqlarni psixologik qo'llab-quvvatlash, relaksatsiya, ritmik mashqlar va ijtimoiy muloqotni faollashtiruvchi metodlar bilan uyg'unlashtirish eng yuqori samaradorlikni beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tizimli mashg'ulotlar bolalarda nafasni boshqarish, nutq ritmini me'yorlashtirish, pauzalarni ongli qo'llash va nutq jarayonini oldindan rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, emotsional taranglikning kamayishi, o'ziga bo'lgan ishonchning oshishi va nutqiy vaziyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Guruhli mashg'ulotlar esa ijtimoiy moslashuv, muloqotga kirishish va o'z fikrini ravon ifodalashni qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Kuzatuvlar shuni tasdiqladiki, logoped, psixolog va ota-onalar hamkorligidagi integrativ korreksion model eng barqaror natijalarni beradi: uy sharoitidagi mashqlar, muntazam muloqot amaliyoti va psixologik qo'llab-quvvatlash bolaning nutqdagi yutuqlarini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, dudug'lanishdagi bolalar bilan amalga oshirilgan logopedik korreksion ishlar nutq ravonligini tiklash, bolaning psixologik holatini yaxshilash, ijtimoiy faollikni oshirish va muloqotga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishda samarali ekanini ko'rsatdi. Shu bois korreksion jarayon individual yondashuvga, uzoq muddatli rejalashtirishga va fanlararo hamkorlikka tayanishi zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ашурова М. Логопедия: теория и практика. – Ташкент: Ўқитувчи, 2019. – 256 с.
2. Лалаева Р. И., Серебрякова Н. В. Заикание у детей: диагностика и коррекция. – СПб.: Речь, 2017. – 304 с.
3. Волкова Г. А. Логопедия. Заикание: причины, механизмы, коррекционная работа. – М.: Владос, 2018. – 240 с.
4. Белякова Л. И. Логопедическая работа с детьми, страдающими заиканием. – М.: Педагогика, 2016. – 198 с.
5. Жумабоев Н. Nutq buzilishlari va ularni korreksiyalash metodlari. – Тошкент: Fan, 2021. – 212 б.
6. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М.: МГУ, 2018. – 384 с.



7. Guitar B. Stuttering: An Integrated Approach to Its Nature and Treatment. – Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins, 2014. – 568 p.
8. Bloodstein O., Ratner N. A Handbook on Stuttering. – Boston: Cengage Learning, 2021. – 512 p.
9. Onslow M., Packman A., Harrison E. The Lidcombe Program of Early Stuttering Intervention. – San Diego: Plural Publishing, 2020. – 230 p.
10. Чиркина Г. В. Психологические аспекты заикания у детей. – М.: Просвещение, 2017. – 176 с.